

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

**«РОЛЬ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В
СОВРЕМЕННОМ ВОСПИТАНИИ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ
НАУЧНО – ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**"THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN
MODERN EDUCATION"**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
CONFERENCE**

**“ZAMONAVIY TARBIYADA XALQ
PEDAGOGIKASINING O‘RNI”**

**MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY –AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

*O‘zbekiston,
Qarshi shahri,
15-16 dekabr 2022 yil.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-son farmoyishini 1-ilovasining "2022-yilda o'tkaziladigan xalqaro ilmiy va ilmiy-amaliy tadbirlar rejasi"ga ko'ra 2022-yil 15-16 dekabr kunlari Qarshi Davlat Universitetida "Zamonaviy tarbiyada xalq pedagogikasining o'zni" mavzusida pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanish-larning dolzarb muammolari, erishilgan yutuqlar va belgilangan vazifalarni bajarish mexanizmlarini muhokama qilish maqsadida Xalqaro ilmiy konferensiya Qarshi davlat universitetida tashkil etilmoqda.

Konferensiyaning maqsadi: Zamonaviy tarbiyada xalq pedagogikasining muammolari va uning yechimlarini topish, hozirgi rivojlanish tendensiyalarini muhokama qilis pedagogika sohasi bo'yicha ta'limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so'nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

DASTURIY QO'MITA

- Nabiyev Dilmurod Hamidullaevich** – Qarshi DU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, rais;
- Nodir Xolmirzaev Sulaymonovich** - Qarshi DU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori rais o'rinbosari;
- Xolmuradov Abduhamid Erkinovich** - Qarshi Davlat Universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektor, professor;
- Yuldoshev Ismoil Abriyevich** - Qarshi Davlat Universiteti Pedagogika fakul'teti dekani;
- Soxibov Akram Rustamovich** - Pedagogika kafedrasini mudiri, dotsent;
- Haydarova Oliya Qaxxarovna** - Pedagogika kafedrasini dotsent a'zo;
- Ochilova Nigora Mallayevna** - Pedagogika kafedrasini dotsent a'zo;
- Qoraxonova Oysara Yo'ldoshevna** - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) a'zo;
- Zulfiya Qayumovna Murodova** - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) a'zo;
- Moxira Sattorova** - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) a'zo;

TASHKILY QO'MITA

Xolmirzaev Nodir Sulaymonovich	Qarshi DU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori	rais
Mahamov Xo'jaaxmad Tavashovich	Texnologik ta'lim kafedrasini mudiri, dotsent	a'zo
Uzokova Gulnoza Sag'dillayevna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	a'zo
Begmatova Sevara	Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi	a'zo
Shodmonova Zilola	Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi	a'zo

Mas'ul muharrir:

Oripova Nodima Halilovna - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

Nurullayeva Shaxlo O'ktamovna - pedagogika fanlari doktori, professor.
Zebo Hamidovna Qosimova - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OTA-ONA VA FARZANDLAR O'ZARO MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARI

*Niyozova S. D. BuxDU o'qituvchisi
sitoraniyazova69@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzandlar hamda qon-qarindoshlik aloqalari kabi masalalar shuningdek, hadislarda oila va oila a'zolari, ota va ona, ota-ona va farzandlar, oilaning boshqa a'zolari, ayollar va erkaklar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi amaliy muomala tizimi imon talablari asosida bayon etiladi.

Annotation: In the article, issues such as family relations, parents and children and blood relations are also discussed in hadiths between family and family members, father and mother, parents and children, other family members, women and men, individual and society. practical treatment system is described based on the requirements of faith.

Inson bolasi o'zi tug'ilib o'sgan oilasida ilk bor ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Uning ijtimoiylashuvi avvalo o'z oilasidagi shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshadi. U bilan dastlabki ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning ota-onasi, aka-opasi va oilasidagi boshqa a'zolaridir. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, yetuk inson bo'lib yetishishida, hayotda o'z o'rnini topib ketishida uning qanday oilada tarbiyalanganligi, oilada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o'z ota-onasi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarining qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham insoniyat madaniyati tarixining ilk davrlaridanoq shaxslararo munosabatlarning aynan shu turiga, ya'ni oiladagi shaxslararo munosabatlarga, ayniqsa, ota-ona va farzandlar munosabatlariga, oilada bolalarning o'zaro munosabatlariga alohida e'tibor berib kelingan. Bu mavzuning uzoq o'tmishga ega ekanligini biz deyarli barcha millatlar xalq og'zaki ijodiyoti namunalari misolida ko'rishimiz mumkin.

Masalan, xalqimizning ming yillik tarixga ega bo'lgan buyuk dostoni «Alpomish», «Go'ro'g'li», shuningdek, Sharq mamlakatlari xalqlari uchun katta ma'naviy manba bo'lmish hind xalq dostonlari «Maxobxorot», «Ramayana» kabilarda mazkur munosabatlar tizimi yorqin tasvirlangan. Ular ming yillar davomida xalq og'zaki ijodiyoti namunalari tarzida avloddan-avlodga uzatilib, kelajak avlodlar ma'naviy dunyosi, ruhiy olami, milliy qadriyatlarining shakllanishida munosib o'rin egallab kelmoqda.

Xalqimizning shunday ma'naviy meroslaridan biri bo'lmish «Shirin bilan Shakar» dostonida ham oila, oilada bola tarbiyasi, bunda ota-ona ma'suliyati va burchi, farzandga nisbatan halollik va muhabbat, farzandning ota-onaga hurmati, ota-ona qadrini yuqori tutishi kabi masalalarga alohida e'tibor berilgan. Doston qahramonlari aka-uka Shirin bilan Shakar obrazi orqali farzandlarning ota-onaga muhabbati, aka-ukaning bir-biriga qon-qarindoshlik munosabati tasvirlangan. Shuningdek, dostonda oilaviy bir janjal asosida ota-bola mojarosi maydonga chiqadi. Shoh Qosimxon xotini Kenjaoyning tuhmatiga ishonib, Shirin bilan Shakarni o'limga hukm qiladi. Otasidan jabr ko'rgan Shirin va Shakar undan yuz o'giradilar. Biroq ular onalarini sadoqat bilan sevadilar, uning farzandlari uchun chekayotgan iztiroblari, ko'z yoshlariga achinadilar, ona diydorini qo'msaydilar. Doston xotimasi sharqona an'ana va tarbiya qoidalari bilan yakunlanadi. Begunoh farzandlarini hech o'ylamay-netmay o'limga hukm qilgan ota jazoga loyiq, albatta.

Biroq qadimiy sharqona tarbiya me'zonlari bunga yo'l qo'ymaydi. Chunki bu mezonlar mazmunida imon-eotiqod, hurmat, muruvvat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, odamlarni kechirimli bo'lishga undaydi. Bunday sharqona tarbiya talablariga ko'ra, ota-piri buzrukvor, qiblagoh, duogo'y, mo'otabar zot hisoblanadi. Farzand otaga e'tiqodli, muruvvatli, samimiy itoatgo'y bo'lishi lozim. Otaning duoibadi, qarg'ishi yomon. Bunga «Ota rozi - xudo rozi» qabilidagi maqollarning ko'plab tilga olinishi ham misol bo'ladi.

Barcha asarlarda ota-onani hurmat qilish, odob bilan ularning xizmatlarini bajarish farzandning vazifasi ekanligi uqtiladi. Masalan, rivoyatlarning birida, ota-onalarning farzandlariga insonlarni ranjituvchi so'zlar aytishdan, yomon ishlardan saqlanish lozimligi ta'kidlangan holda farzand-

larning ota-onaga qanday xizmat qilishi kerakligini quyidagi tarzda bayon etiladi: «Bir kishi kechasi uyqudan uyg'onib o'g'lidan «suv ber» deb so'radi.

O'g'li suv keltirguncha, otasi yana uxlab qolgan edi. O'g'li «otam balki yana suv so'rar», deb uxlamasdan otasinig uyg'onishini kutib tong otguncha o'tirdi».

Bu kabi rivoyatlarning deyarli barchasida farzand o'z ota-onasini hurmat qilishga, uning olqishlarini olishga daovat etiladi. Insoniy g'oyalarda ruhida tarbiyalangan farzand ota-onasi qilgan nasihatlariga amal qilgan, ota-onasi hurmatini joyiga qo'ygan.

Ota-onaning farzandlariga va farzandlarning ota-onasiga mehr-oqibatli bo'lishlari, ularning ota-onalik va farzandlik burchi, mas'uliyatini his qilish masalalari xalqimiz milliy qadriyatlarining shakllanishida muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qilganligi shubhasiz. Shariat qonunlarida, islom ta'limotida, Qur'on Karim va Hadisi shariflarda oilaviy munosabat qoidalari asosiy o'rin egallaydi. Zotan, ota-ona farzandni dunyoga keltiruvchi, tarbiyalovchi, hamfikir, do'st, hayotda yo'lboshlovchi, oilaning moddiy va ma'naviy ta'minotchisi tarzida ulug'lanadi. Shuning uchun ham Qur'on ta'limotiga ko'ra oilada ota-ona eng muqaddas zot.

Oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzandlar hamda qon-qarindoshlik aloqalari kabi masalalar nafaqat diniy, balki boshqa ijtimoiy munosabatlar doirasida ham muhim o'rin tutgan. Shuningdek, hadislarda oila va oila a'zolari, ota va ona, ota-ona va farzandlar, oilaning boshqa a'zolari, ayollar va erkaklar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi amaliy muomala tizimi imon talablari asosida bayon etiladi. Hadislarda ota-onaga hurmat, mehr-muhabbat, e'zoz, moddiy va ma'naviy yordam, ularning amriga bo'ysunish, ota-ona dunyodan ko'z yumgach, ularning qarindosh-urug'lari, do'stu-birodarlari bilan munosabatlarining iltifotini davom ettirish, vasiyatlariga amal qilish yoshlar ongiga singdirilib kelingan. So'nggi yillarda bu borada ko'plab asarlar chop etilib, keng kitobxonlar ommasiga, yoshlar eotiboriga havola etilmoqda.

Xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini va diniy manbalarda oilaning muqaddas ekanligi, ota-onaning farzandlari oldidagi, bola va farzandning o'z ota-onasi oldidagi burchlari kabi masalalar hamda bolalar (qiz va o'g'il bolalar) tarbiyasida shariat ko'rsatmalarining aks etishi ming yillar davomida oila instituti shakllanishida ijobiy taosir ko'rsatib kelgan.

Sharqning buyuk allomalari bo'lmish Al-Buxoriy, At-Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abulqosim Firdavsiy, Amir Temur, Saodi Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab mutafakkirlarimiz bu borada o'zlarining tegishli fikr-mulohazalarini kelajak avlodga meros qilib qoldirgan. Ularning bu mavzuga oid ilmiy merosi bugungi kunda ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga, oilada bolalarning shaxslararo munosabatlariga oid qarashlari taosirchan obrazlarda ifodalangan hamda ular xalq ruhiyatiga, milliy psixologiyasiga chuqur singib ketgan.

Yuqoridagi tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, musulmon olami, Sharq mutafakkirlari orasida oila muammolari bilan qiziqqan va shu xususda o'zlarining qimmatli fikrlarini kelgusi avlodlar uchun qoldirgan olimlar juda ko'p bo'lgan. Biz ularning ayrimlariga to'xtaldik, xolos. Ular Sharqning boy madaniyati, ma'naviy qadriyatlari borligidan, har bir millatda insonning ruhiy qiyofasi takrorlanmasligidan darak beradi. Bu fikrlar va qarashlarni zamon talablari asosida o'rganib chiqish katta psixologik va pedagogik ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ajdodlar o'g'iti. Hikoyalar, hikmatlar, -T.: 1990. - 240 b.
2. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi. -T.: O'qituvchi, 1988. - 272 b.
3. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. -T.: O'zbekiston, 1991. - 112 b.
4. Al-Buxoriy, Ali Abdulloh Muhammad ibn-Ismoil. Hadis. 4 kitob. 1-kitob. -T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. - 560 b.
5. Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. - Chimkent: Yuj.Kaz. SITI. 1993. - 83 b.

6. Axloq - odobga oid hadis namunalari. -T.: Fan, 1990.- 172 b.
7. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati.-T:Cho'lpon,1995.-176 b.
8. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. -T.- Universitet, 1997. - 18 b.
9. Bo'riev O., Xoliqov D. Turkona an'ana va udumlar-millat ko'rki. -T.: Minxoj, 1996. - 48 b.

TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARDA MILLIY AXLOQIY QADRIYATLARIMIZGA XOS SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILADAGI MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

*Sultonov A. I. - QarDU katta o'qituvchisi
Ikromova M. A. – Koson tuman
9- maktab boshlangich sinf o'qituvchisi*

Аннотация: Maqolada tarbiyasi og'ir o'smirlarda milliy axloqiy qadriyatlarimizga xos sifatlarni shakllantirish jarayonida oiladagi olib boriladigan ma'naviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati kabi muammolar tahlili bayon etilgan.

Аннотация: В статье излагается роль и значение духовного воспитания в семье в процессе формирования национальных нравственных ценностей, у подростков с трудным воспитанием.

Annotation: The article analyzes the problems such as the role and importance of spiritual education in the family in the process of forming the national idea of students with special needs.

Ma'naviyat inson ruhiyatining asosiy mohiyatini ifodalovchi, uning faoliyatiga ijobiy mazmun va yo'nalish beruvchi subyektiv omildir. Fan texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan eng asosiy va dolzarb vazifalardan biridir. Inson ma'naviyatini yuksaklikka olib chiqishda oila ilk zamin hisoblanadi. Jamiyat rivojlanib, ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati ortgani sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchaya boradi. Bu borada oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda farzandlar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi, burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi, shu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan turib, xalq mafkurasini yaratib bo'lmaydi.

Oila insoniyat tomonidan yaratilgan muhim va muqaddas ijtimoiy institutdir. Darhaqiqat oila, ayniqsa o'zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Har bir insonda Vatan tushunchasi ilk bor tetapoya bo'lib o'sib kelayotgan yosh go'dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi, butun umri, hayotiy faoliyati davomida yana ham sayqallanib, mazmunan mujassamlashadi. Bu jarayon oiladagi sog'lom muhitda, bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri, aka-uka, opa-singillarning mehr-oqibati orqali amalga oshib boradi. Shaxs ma'naviyati, dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqodi, iymoni avvalo oilada shakllanadi. Xitoylik mutafakkir Konfutsiy oilani kichik bir davlatga taqqoslagani bejiz emas. Qadimgi yunon faylasuflari ham oilaning jamiyat birligi va osoyishtaligini saqlashda va yetuk avlodni tarbiyalashdagi o'rnini yuqori baholagan. Buyuk ensiklopedist olim Aristotel oilani baxt-saodat uyi sifatida ta'riflaydi. Jismoniy sog'lom va ma'naviy boy yosh avlodni kamol toptirish eng avvalo oila zahirida amalga oshiriladi. Yuksak axloqiylik, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, Vatan bilan g'ururlanish va unga muhabbat, uning baxt-saodati, ravnaqi uchun mas'uliyatni tarbiyalash, buzg'unchi g'oyalarga, yomon odob-axloqqa qarshi nafrat ruhi dastavval oilada kurtak otadi.

Oilada shakllangan odob-axloq, xulq-atvor keyinchalik mahallada, mehnat jamoalarida, o'quv muassasalarida rivojlanib shaxsning ongi va qalbiga singib boradi. Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya ishlari o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

O'zbek oilalarida barkamol avlodni tarbiyalashga benihoya katta e'tibor qaratilgan. Unda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar, ota-onalar va bolalarning o'zaro hamkorligi va

24	Donayeva Shaxnoza Abduraimovna. Talabalarda refleksiyaning shakllantirishda psixologik yondoshuvlar	66
25	Мирзаназарова Азиза Мирзаабдуллаевна. Социально-исторические особенности формирования навыков семейного чтения матери и ребенка	67
26	Niyazalieva Muxayyo Maxmudovna. Abdumajidov Jasurbek Davronjon o'g'li. Ixtisoslik fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalari qo'llanilishining ahamiyati	69
27	Qurbanova.A.O'. Inatova.D. Xalq pedagogikasida barkamol shaxsni shakllantirishda tarbiyaning ahamiyati	71
28	Rasulova Zulfiya Rasulovna. Yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash	73
29	Raxmonova Sojida Muxammadovna . Salomova Madina Ikromovna. Zamonaviy tarbiyada etnopedagogik va etnopsixologik yondashuvlar	75
30	Saliyeva Dilorom Abdullayevna. Ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarda etnopsixologik xususiyatlardan tolerantlikni shakllantirishning psixologik imkoniyatlari	77
31	Тукебаева Жаныл Аубакировна. Инновационные технологии использования традиции этнопедагогизации в китайской и казахской аудиториях	79
32	Umedjanova Malika. Bola shaxsining shakllanishida oila tarbiyasining ahamiyati	82
33	Ванюшина Наталья Анатольевна. Этнопедагогические и этнопсихологические аспекты нравственного воспитания как составная часть обучения в университете	83
34	Xaydarova O.K. Botirova Z. N. Xalq og'zaki ijodida hozirjavoblik talqini	85
35	Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li. Akademik erkinlik g'oyasining ijtimoiy-pedagogik asoslari	86
36	O'roz Haydar. Inson tarbiyasida folklorning o'rni	87
37	Begmatova S.N, Sadinova Sh.I. Axloqiy tarbiya – xalq pedagogikasining asosi sifatida	90
38	Кенжабоев Абдусалим. Этнопедагогика– миллий тарбиянинг асоси сифатида	91
III -SHO'BA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MILLIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNIG MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.		
39	Азамова Ситора Аёновна. Экологик таълим-тарбияга бўлган муносабатнинг устуворлашуви	94
40	Amirov Nurbek Islamovich. Milliy tarbiya-jamiyatni sog'lomlashtirishning muhim omili	96
41	Donayeva Shaxnoza Abduraimovna. Talabalarda refleksiyaning shakllantirish omillari va shart-sharoitlari	98
42	Очилова Дилобар Журакуловна. Мустақиллик оstonasi va мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистонда таълим тизимининг ҳолати	100
43	Ochilova Nargiza G'aybullayevna. Uzluksiz ta'lim tizimida milliy tarbiyaning o'rni	103
44	Mamatkobilova Shodiya Azamat qizi. Xalq pedagogikasi materiallaridan pedagogik texnologiyalarni qo'llashda foydalanishning innovatsion xususiyatlari	105
45	Nazirov U.Q. Boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan elektron ta'lim resurslaridan foydalanishga metodik yondashuv tahlili	106
46	Ruziyeva Iroda Payzilloyevna. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	109
47	Ўринова Юлдуз. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг педагогик асослари	111
48	Niyazova Gulbahor Davronovna. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasining o'rni va hadislardan foydalanish imkoniyatlari	115
49	Niyozova Sitora Davronovna. Sharq mutafakkirlarining ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlariga oid qarashlari	117